

Minsk Milliy aeroportida sodir bo'lgan voqea haqida rasmiy ma'lumot

2022 17 января

“Uzbekistan Airways” AJ matbuot xizmati xabar berishicha, bugun, 17-yanvar kuni Toshkent-Minsk yo'nalishidagi HY-709 reysini amalga oshirgan Uzbekistan Airways aviakompaniyasiga tegishli Airbus A-320 havo kemasi kuchli qor yog'ishi va qor bo'roni vaqtida 13.35 (Toshkent vaqti bilan) Minsk Milliy aeroportiga muvaffaqiyatli qo'ndi. Biroq, havo kemasi boshqaruv vaqtida uchish-qo'nish yo'lagidan tashqariga chiqib ketdi. Favqulodda vaziyat vaqtida havo kemasi sahnida 11 nafar ekipaj a'zolari va 115 yo'lovchi bo'lib, ular orasida zarar ko'rganlar yo'q. Hodisa natijasida havo kemasi zarar ko'rmagan.

Minsk milliy aeroporti mutaxassislari xabar berishicha, voqea joyida avariya-qutqaruv xizmatlari ishlamoqda.

“Uzbekistan Airways” AJ matbuot xizmati OAV vakillaridan mazkur voqea haqida tasdiqlanmagan ma'lumotlarni tarqatmaslikni so'raydi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways